



SHUKUR XOLMIRZA YEV QISSALARIDA BOLALAR RUHIYATININING OCHIB BERILISHI

Kadirova Ruxsora Ravshanek qizi
*Urganch davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek yozuvchisi Sh.Xolmirzayevning qissalaridagi badiiy qahramon tahlili, o'smir bolalar ruhiyatini tadqiq etilgan. Yozuvchining asarlarida xarakter tabiatni, inson ruhiyatini, ayniqsa, o'smir bolalar ruhiyatining nozik qirralarini ochishga e'tibor qilgan. Ma'lumki, insonning eng ta'sirchan, beriluvchan, salga xafa bo'ldigan, qiziqqon davri bu o'smirlilik davridir. Shukur Xolmirzaev o'z qissalarida bola obrazini yaratish ekan. Bolalarga xos bo'lgan ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealar bola tilidan ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: psixologik tahlil, obraz yaratish, yozuvchi mahorati, ijodiy metod

Аннотация: В данной статье проводится анализ художественного героя в рассказах узбекского писателя Ш. Холмирзаева, исследуется психика детей-подростков. В произведениях писателя он сосредоточил внимание на раскрытии характера характера, психики человека, особенно тонких сторон психики детей-подростков. Известно, что подростковый возраст – самый впечатлительный, страстный, пылкий, пылкий период жизни человека. Шукур Холмирзаев в своих рассказах создает образ ребенка. Детские душевые переживания, чувства, события и события, которые их потрясли, выражаются в языке ребенка.

Ключевые слова: психологический анализ, создание имиджа, навыки письма, творческий метод.

Annotation : In this article, the analysis of the artistic hero in the stories of the Uzbek writer Sh. Kholmirzayev, the psyche of teenage children is researched. In the works of the writer, he focused on revealing the nature of character, the human psyche, especially the subtle aspects of the psyche of teenage children. It is known that adolescence is the most impressionable, passionate, passionate, passionate period of a person. Shukur Kholmirzayev creates the image of a child in his stories. Children's mental experiences, feelings, incidents and events that shook them are expressed in the child's language.

Key words: psychological analysis, image creation, writing skills, creative method.

Shukur Xolmirzayev ijodida bolalar obrazi alohida o'rinn tutadi. Yozuvchi ularni o'z asarlarida samimiy va tabiiy qiyofada tasvirlaydi. Adib qissalarida bola ruhiyatini yoritishga, o'smirlar psixologiyasining muhim jihatlarini turli rakurslarda badiiy talqin etishga muvaffaq bo'lgan. Bola obrazi o'ndan ortiq qissalarida aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo`lib gavdalandi. Adibning qissalari odatda lirik ibtidoga ega bo'ladi. Ya'ni unda bir qahramon hayotiga taalluqli bir necha





voqealar zanjiri qalamga olinadi, hikoya odatda bosh qahramon tomonidan olib boriladi. Bu esa qissani badiiy psixologizm nuqtayı nazaridan lirikaga yaqinlashtiradi. Voqelik o'sha qahramon nuqtayı nazaridan idrok etiladi. Xuddi lirikadagi kabi voqelik qahramon ichki dunyosi prizmasidan o'tadi; faqat lirikadan farqli o'laroq qissada muayyan voqelik bayon etiladi. Qissada muallif uchun hikoyachi qahramonning ruhiyatiga chuqur kirish imkonи paydo bo'ladi. Ammo bu boshqa qahramonlarning ichki dunyosiga kirishni cheklab qo'yadi, boshqa qahramonlar esa faqat tashqaridan turib tasvirlanadi. Adibning "Oq otli", "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Yo'llar, yo'ldoshlar", "Tuproq ko'chalar", "Yur, tog'larga ketamiz!", "Ot yili" kabi qissalarida o'ziga xos mavzu, sujet, muammo tanlangan bo'lsa-da, ularda umumiy jihatlar ham kuzatiladi. Bular, **avvalo, yozuvchining obraz tanlashida ko'zga tashlanadi.** Adib, asosan, o'smir bolalarni bosh qahramon qilib tanlaydi:

- "Yo'llar va yo'ldoshlar"da O'sal, Mavlon, Boshbek; "Tuproq ko'chalar"da roviy, Maxsum, Rahimcha, gung bola, tojik bola Eshmamat; "Yur, tog'larga ketamiz!" qissasida hikoyachi Nurali, Otaqlı; "Oq otli" qissasida o'smir bolalar Qosim, Sherzod, Jamol. **Qolversa, yozuvchi insonning tabiatga bo'lagan munosabatini tasvirlashida.** Deyarli barcha qissalarida adib voqealarni qishloq va uning go'zal tabiatini bag'rida jonlantiradi. Yosh qahramonlar tabiatning bir bo'lagi bo'lgan jonivorlarga mehr qo'yadi, ular bilan bog'liq voqealarni esa xuddi rassomlardek yorqin peyzajlarda tasvirlaydi. Asarlaridagi jonivorlar (ot, cho'pon it, qushlar...) bosh qahramonning o'zini anglashdek mashaqqatli yo'lida hamroh bo'ladi.

Adib o'z tanlagan qahramonlarining ruhiy kechinmalariga, o'smir ruhiyatining chuqur qavatlariga nazar soladi. Ularni badiiy voqelik jarayonida psixologik jihatdan o'sish, o'zgarishiga tadriji bilan bog'liq holda tasvirlaydi.

Adib qissalarini o'qir ekanmiz, qahramonlarning intim kechinmalari yozuvchining g'oyaviy konsepsiyasini ochishda qanchalik muhim o'rinnegallaganini anglaymiz. Ma'lumki, "Psixologizm... yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir" (A. Qahhor), asar badiyligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Chunki "odam adabiyotning tasvir predmetidir. Odam tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q, shu bilan birga "odam tasviri" demak –boshlicha odamning ichki dunyosi tasviri, uning kechinmalari tasviri demakdir."¹ Hayotda bo'lganidek, adabiyotda ham odam o'zining

¹ Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. Toshkent, 1983, 13-b





individual psixologik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi bu xarakter (“tamg‘a”, “xislat”, “belgi”, “alomat” ma’nolarini beradi) tushunchasi bilan bog‘liqdir.² Yozuvchining asarlarida xarakter tabiatı, inson ruhiyatini, ayniqsa, o’smir bolalar ruhiyatining nozik qirralarini ochishga e’tibor qilgan. Ma’lumki, insonning eng ta’sirchan, beriluvchan, salga xafa bo‘ldigan, qizziqqon davri bu o’smirlik davridir. Agar uni qilgan ezgu ishiga sal rag‘bat, e’tibor bo‘lsa, u kelajakdako‘p ezgu ishlarga qodir bo‘lishi mumkin. Shukur Xolmirzayev o‘z qissalarida bola obrazini yaratara ekan. Bolalarga xos bo`lgan ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealar bola tilidan ifoda etilgan. Shukur Xolmirzayev o`ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so`zga xasis bo`lsa-da, fikrini o`quvchiga to`la va yorqin etkazishga erishadi. Biroq ba`zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg`otadi. O`quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e`tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko`rinadiki, bu o`quvchini o`ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o`quvchi e`tiboriga havola etiladi. “Tuproq ko‘chalar”da roviy, Maxsum, Rahimcha, gung bola, tojik bola Eshmamat o’smir bolalar obrazi bor. Qissada voqealar roviy bola tilidan hikoya qilinadi. Hikoyachi maktab o‘quvchisi, u o‘z tengdoshlarini o‘zicha tasvirlar ekan, bolalarining ruhiyatiga nazar solish imkonini beradi.

“*Bular uch kishi edi: Rahimcha kinoxonani supurib o’sha yerda yotib qoladigan Tarzan laqabli, novcha bola, keyin ko‘zları ola-kula, bolalar uyidan qochgan gung bola. Biroblar bularni o‘g‘ri der, birovlar boksga zo‘r der, ba’zi bolalar*”³ Qissada Rahimcha zo‘ravon, tarbiyasi nazoratsiz qolgan, xarakteri og‘ir bola. U o‘zi tengi bolalardan to‘da tashkil etib, ko‘lga cho‘milish uchun kelgan bolalardan biror narsa talab qiladi. Hikoyachi bola ularning ko‘p yomon ishlar qilishini biladi. Ammo o‘zida ularga qarshi chiqishga kuch topolmaydi. Buning sababi u otasiz, yolg‘iz onasining qo‘lida voyaga yetgani edi. Ona tarbiyasi ta’siridanmi, u ko‘ngilchan, mehribon. Asar avvalida bola ruhiyatida qo‘rqoqlik, iroda zaifligi sezilgan bo‘lsa, voqealar davomida uning ruhiyatida o‘zgarish o‘sish kuzatiladi.

² Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. Toshkent, 1983, 20-b.

³ Xolmirzayev Sh.” Yo’llar, yo’ldoshlar” hikoyalar va qissalar. Toshkent.1984 yil. 65-bet





Eshmamat bilan bog'liq voqeа bolaning o'z - o'zini taftish etishga undaydi. Bola qalbida jasurlik hissi uyg'onadi. Do'st sinovda bilinadi degan gap bor. Sinovdan o'tgan Eshmamat manzillariga yetgach, xayrlashar ekan bola unga qarata shunday deydi:" Endi ikkalamiz jo'ra bo'lamiz."⁴ Yozuvchi qissa qahramoni bolaning do'stlik sinovidan o'ta olmaganidan, iztirob chekkan holatini, ayniqsa, onasining "haliyam ular bilan yuribsanmi?"⁵ degan gapidan xo'rligi kelib yig'lab yuboradi. Bola o'z xatolarini tushunib yetganida u bilan do'st bo'lgan Eshmamatdan va Nagandan kechirim so'raydi: "Ertasi "O'qituvchi" kitobini o'qib o'tirib, Naganni esladim. Ketib qolganidan endi xafa bo'ldim. Adresini onamdan so'rab olib, xat yozdim. " Nagan jo'ra, meni kechirgin. Men ular bilan yurmayman endi. Kelgin Gulbahorga!".⁶

O'smir yoshdagi bolalar psixologiyasini kuzatar ekanmiz, ularda favqulodda kuchli bo'lish, qahramonlik ko'rsatib, hammani qoyil qoldirish, ko'rgan filmi bormi, eshitgan ertagi bormi, ulardagi qahramonlarga o'xshash bo'lishni istashlarini sezamiz. Rahimcha va ularning to'dadoshlarida aynan kino qahramonlariga taqlid, kuch bilan boshqalarni o'ziga tobe qilish, qo'rqtib qo'yish holati kuzatiladi. O'smirlik davriga xos xarakterdagi o'zgarishlarni yozuvchi aniq-tiniq tasvirlab bera olgan. Bu davrda bola kattalar bosimida uzoq bo'lishni, o'zini mustaqil va kuchli his qilishni istab qoladi. Ba'zan ular ruhiyatida hammani diqqatida bo'lish yoki biror odamning diqqatini o'ziga tortish istagi tug'iladi. Buni sevgi deb atab, o'z xayollarida mehri tushgan odamning ko'ngliga yo'l topishga urinadilar. Bu holatni biz ushbu qissada hikoyachi bolaning qo'shni mакtabda o'qiydigan tengdoshi o'quvchi qiz Faridaga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'rimiz mumkin. Hatto Faridani Rahimcha velosipedida "kataysa qildirib kelgani"da kattalarga xos rashk tuyg'usini dilidan o'tkazadi. Bu holatni yozuvchi shunday tasvirlaydi. Bolalarga xos sodda, samimiy so'zlar bilan: " Velosiped olsam, Faridani bitta o'zim kataysa qildiraman."⁷

O'smir qalbidagi sevgi tuyg'usi o'ziga va atrofdagilarga munosabatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu holat asarda quyidagicha tasvirlanadi. Asarda bolalar qishlog'idagi kinoxonaga kino tomosha qilish uchun boradilar. Hikoyachi bola, Nagan va Farida yonma-yon o'tirib qolishadi. Bola Faridaning "Bugun soyga bormading"⁸

⁴ O'sha asar.72-bet

⁵ O'sha asar.79-bet

⁶ O'sha asar.79-bet

⁷ O'sha asr.69-bet

⁸ O'sha asar 76-bet





degan gapidan “lovillab yonib ketadi”, tuyg‘ulari to‘lqinlanadi. Yozuvchi o‘smir ruhiyati qavatlariga chuqur kirib boradi. Undagi sevgi, jasoratlilik, qo‘rroqlik, rahmdillik, kibrilik kabi tuyg‘ularning bola zohiriyatida qanday namoyon bo‘lishini adib qahramonning xatti-harakati, ijtimoiy muhitdagi aloqa- munosabatida akslantiradi. Qo‘rroqlik! Bu so‘zni hikoyachi bola do‘sti Nagan tilidan eshitadi. Ular kinoxonada Farida bilan yonma-yon o‘tirishganda Rahimcha kelib qoladi. Og‘zidan aroq isi kelayotgan bu o‘smir yigit tegajoqlik qilib, bolani Faridaning oldida izza qiladi. Unga kuch jihatdan qarshilik ko‘rsatolmaganidan Bola va Nagan Faridani Rahimchaning yonida qoldirib, boshqa joyga borib o‘tiradilar. Hikoyachi qahramonimiz bu holatdan ich-ichida iztirob chekadi:”Xo‘rligim kelib ketdi! Farida nima deb o‘yladi...”⁹ Uning Farida uchun loaqlal bir so‘z aytolmasligi do‘sti Naganni achchiqlantiradi. Nagan bolaning yuziga dangal qilib:“Qo‘rroqsan, Faridani ham tashlab kelding”¹⁰, - deydi. Hatto undan uzoqlashishni afzal ko‘rib, qishlog‘iga qaytib ketadi. “U seni qo‘rkitib olibdi” degan gapi Naganning ruhidagi dadillikni ko‘rsatsa, bolaning “nimasidan qo‘rqaman, u bilan bravar bo‘lib o‘tiramanmi?”¹¹ degan javobi jur’atsizligidan, hali o‘ziga ishonch yo‘qligidan dalolat beradi. Yozuvchi, qissada bolaning ruhiyatidagi talotumlarga sabab bo‘lgan Rahimcha va uning “to‘dadowshari” navbatdagi janjaldan keyin o‘n besh sutkaga qamalib, ancha bosiq bo‘lib qolganini bayon etgan. Asardan inson umri davomida o‘zi bilan o‘zi kurashib, ruhiyatidagi qusurlarni asta - sekin tuzatib borishi, jamiyatda o‘zini va yaqinlarini oyoqosti qilib qo‘ymasligi lozimligi o‘ziga xos motivlarda ochib beriladi. O‘smirlar kelajakdagı kattalar ekan, ularning hayot yo‘lida o‘zlarini qanday, qaysi qahramon qiyofasida o‘sib borayotganliklarini tasavvur qilishlari juda muhim hisoblanadi. Yozuvchi o‘smirlar hayoti qalamga olingan asarlari bilan kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarga, ularning qiziqishlariga e’tibor bilan qarashga, o‘z hayot yo‘llarini tanlashlarida chinakam maslahatgo‘y bo‘lishga kitobxon ahlini, butun jamiyatni chorlaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. O‘zbekiston. 2002.
2. Xolmirzayev Sh.” Yo‘llar, yo‘ldoshlar” hikoyalar va qissalar. Toshkent.1984-yil.
3. Умurov X. Бадий психологиям ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Тошкент, 1983.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.Toshkent. Abdulla Qodiriy.2004.

⁹ O’sha asar.77-bet

¹⁰ O’sha asar.77-bet

¹¹ O’sha asar. 77 – bet.

